

**TA'LIM MUASSASALARIDA SOG'LOM VA IMKONIYATI
CHEKLANGAN YOSHLAR O'ZARO MULOQOTINING IJTIMOIIY
PERTSEPTSIYASI.**

**Ollomberganova Mahliyo Jabborgan
qizi. Jizzax DPU, maktabgacha va
boshlang'ich ta'limda xorijiy til
yo`nalishi 541-23-guruh talabalari**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida sog'lom va imkoniyati cheklangan yoshlar o'rtasidagi o'zaro muloqotining ijtimoiy-psixologik pertsepsiyasi tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning ahamiyati va bu jarayonda shakllanadigan o'zaro munosabatlar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida ko'riladi. Pertsepsiya-yoshlarning bir-birini qanday qabul qilishi va baholashi – jamiyatdagi tenglik, bag'rikenglik va empatiya kabi ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Аннотация: В статье анализируется социально-психологическое восприятие взаимодействия здоровой и инвалидной молодежи в образовательных учреждениях. Важность инклюзивного образования и складывающиеся в этом процессе взаимоотношения рассматриваются как важный фактор повышения эффективности образования. Восприятие – то, как молодые люди воспринимают и оценивают друг друга – служит развитию в обществе социальных ценностей, таких как равенство, толерантность и сопереживание.

Abstract: Abstract: This article analyzes the socio-psychological perception of interaction between healthy and disabled young people in educational institutions. The importance of inclusive education and the relationships formed in this process are seen as an important factor in increasing the effectiveness of education. Perception - how young people perceive and evaluate each other - serves to develop social values such as equality, tolerance and empathy in society.

Kalit soʻzlar: Inklyuziv taʼlim, sogʻlom yoshlar, imkoniyati cheklangan, yoshlar, oʻzaro, muloqot, pertsepsiya, ijtimoiy integratsiya, empatiya, bagʻrikenglik, ijtimoiy moslashuv, psixologik qoʻllab-quvvatlash, inklyuziv muhit, oʻqituvchi roʻli, ijtimoiy hamkorlik.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, здоровая молодежь, инвалид, молодежь, взаимодействие, общение, восприятие, социальная интеграция, эмпатия, толерантность, социальная адаптация, психологическая поддержка, инклюзивная среда, поддержка учителя, социальное сотрудничество.

Keywords: Inclusive education, healthy youth, disabled people, youth, interaction, communication, perception, social integration, empathy, tolerance, social adaptation, psychological support, inclusive environment, teacher's role, social cooperation.

Bugungi kunda taʼlim tizimi inklyuziv taʼlim tamoyillari asosida rivojlanmoqda. Ushbu jarayonda sogʻlom va imkoniyati cheklangan yoshlarning birgalikdagi taʼlim olishi, oʻzaro muloqoti hamda jamiyatda moslashuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Muloqotning pertsepsiyasi esa ushbu jarayonning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ushbu maqolada sogʻlom va imkoniyati cheklangan yoshlarning oʻzaro muloqoti va uning ijtimoiy hamda psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, oʻzaro muloqotning ahamiyati taʼlim muassasalarida sogʻlom va imkoniyati cheklangan yoshlar oʻrtasidagi muloqot faqat bilim olish jarayonigina emas, balki shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, bagʻrikenglik va empatiya kabi fazilatlarni shakllantirish uchun ham muhimdir. Bunday muloqot jamoaviylikni rivojlantiradi, yoshlar bir-biridan oʻrganadi, turli hayotiy tajribalarga ega boʻladi. Imkoniyati cheklangan yoshlarni toʻlaqonli jamoaning bir qismi sifatida qabul qilishga yordam beradi. Jamiyatda imkoniyati cheklangan shaxslarning oʻz oʻrnini topishiga zamin yaratadi.

Muloqotga taʼsir qiluvchi shaxsiy, ijtimoiy va psixologik omillar koʻrib chiqamiz. Shuningdek, sogʻlom va imkoniyati cheklangan yoshlarning muloqotini yaxshilash boʻyicha tavsiyalar beriladi. Inklyuziv muhit yaratish, maxsus treninglar

tashkil qilish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ushbu jarayonni rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Maqola, jamiyatda inklyuziv ta’limni rivojlantirish hamda ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga oid muhim g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Muloqotga ta’sir qiluvchi omillar bu o‘zaro muloqotning samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- Psixologik omillar- bu imkoniyati cheklangan yoshlarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchi va sog‘lom yoshlarning empatiya darajasi.

- Atrof-muhit omillari - ta’lim muassasasidagi inklyuziv muhit hamda jamoaning ijtimoiy va madaniy normativlari.

- O‘qituvchilar va murabbiylar roli - o‘qituvchilar muloqotni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashda yetakchi o‘rinni egallaydi. Ular yoshlar o‘rtasidagi hurmat va bag‘rikenglikni rivojlantirishda namuna bo‘lishi kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim tamoyillari muhim o‘rin egallamoqda. Bu tamoyillar imkoniyati cheklangan yoshlarning teng huquqli ta’lim olishini va sog‘lom tengdoshlari bilan muloqot qilishini ta’minlaydi. Shu o‘rinda, yoshlarning o‘zaro muloqotidagi hissiy va ijtimoiy tushunchalar — pertseptsiyalar inklyuziv jarayon samaradorligining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Pertsepsiya — bu odamlarning boshqa shaxslar bilan muloqoti davomida ularni qanday qabul qilishi va tushunishi bilan bog‘liq jarayon. Ta’lim muassasalarida sog‘lom va imkoniyati cheklangan yoshlarning bir-birini qabul qilishi, hurmat qilishi va tengdoshlik tamoyillariga rioya qilishi jamiyatdagi kelgusidagi munosabatlarni shakllantiradi. Pertseptsiyaning psixologik tahlili deganda biz muloqotda paydo bo‘ladigan hissiyotlar va ularning talqin qilinishi, ya’ni pertseptsiyasi muhimdir. Masalan: Sog‘lom yoshlar tomonidan- ular ko‘pincha imkoniyati cheklangan tengdoshlarini himoya qilish istagini his qiladilar, ammo noto‘g‘ri tushunilgan hollarda rahmdillik noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Imkoniyati cheklangan yoshlar tomonidan esa, ular o‘zlarini kamsitilgan his qilishi yoki jamiyatda teng mavqega ega ekanliklarini his qilishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy psixologiya bo‘yicha o‘tkaziladigan treninglar va

mashg'ulotlar pertsepsiyani ijobiy tomonga o'zgartirishda muhim o'rin tutadi. Tushunarli qilib aytadigan bo'lsak, pertsepsiya — bu atrofdagi odamlar va voqealarni shaxsiy his-tuyg'ular va tajriba orqali qabul qilish va baholash jarayonidir. Ta'lim muassasalarida bu jarayon yoshlarning bir-birini qanday qabul qilishi, hurmat qilishi va o'zaro muloqotni qurish usullarini belgilaydi.

Sog'lom yoshlar nuqtayi nazaridan: Imkoniyati cheklangan tengdoshlarini himoya qilish yoki ularga yordam berish hissi. Ba'zan esa rahm-shafqat yoki noto'g'ri tushunilgan hurmat (masalan, ularni teng huquqli emas, balki ojiz deb qabul qilish).

Imkoniyati cheklangan yoshlar nuqtayi nazaridan: O'ziga nisbatan kamsitilish yoki ajratib qo'yish hissi. Shuningdek teng huquqli munosabatni xohlash, lekin ba'zan o'z kamchiliklari tufayli muloqotga kirishishda qiyinchilikka duch kelish.

Muloqotning ijtimoiy-psixologik ahamiyati.

1. Ijtimoiy integratsiya: Sog'lom va imkoniyati cheklangan yoshlarning birgalikdagi ta'limi jamiyatda tenglik, bag'rikenglik va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Empatiya va bag'rikenglik: Birgalikda ta'lim yoshlar o'rtasida empatiya ya'ni, boshqa odamning his-tuyg'ularini tushunish va qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Jamoaviy hamkorlikni shakllantirish: O'quvchilar birgalikda ishlash orqali bir-biridan o'rganadilar, bu esa o'z navbatida ijtimoiy munosabatlarning yaxshilanishiga olib keladi.

Pertsepsiyaga ta'sir qiluvchi omillar

1. Psixologik omillar:

Sog'lom o'quvchilarning empatiya darajasi.

Imkoniyati cheklangan yoshlarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi

2. Ta'lim muassasasining muhitiga bog'liq omillar: Inklyuziv muhitning mavjudligi.

O'qituvchilarning inklyuziv ta'limga yondashuvi va muloqotni rag'batlantirish usullari.

3. Ijtimoiy stereotiplar: Imkoniyati cheklangan shaxslarni zaif yoki yordamga muhtoj deb qabul qilish.

Ularni jamiyatda teng huquqli shaxs sifatida tan olishdagi to'siq. Sog'lom va imkoniyati cheklangan yoshlar o'rtasidagi muloqotni samarali tashkil qilish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: inklyuziv muhitni yaratish ya'ni ta'lim muassasalarida barcha yoshlar uchun teng sharoitlar yaratilishi lozim. Trening va seminarlar tashkil etishda biz muloqotni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazishni tushunishimiz kerak. Shuningdek, jamiyatda inklyuziv ta'limning afzalliklari haqida keng tushuntirish ishlari olib borish. Bundan maqsad esa otalar va jamoatchilikni jalb qilishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Inklyuziv ta'lim orqali sog'lom va imkoniyati cheklangan yoshlarning o'zaro muloqoti nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatdagi ijtimoiy integratsiyani ham kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bunday muloqotni to'g'ri yo'naltirish va qo'llab-quvvatlash hamma uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida sog'lom va imkoniyati cheklangan yoshlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu jarayon, nafaqat ta'lim sifatini yaxshilash, balki jamiyatdagi tenglik, bag'rikenglik va birgalikda yashash tamoyillarini rivojlantirishga xizmat qiladi. To'g'ri tashkil etilgan muloqot har ikki guruh uchun ijtimoiy va psixologik rivojlanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Karimov, A. "Inklyuziv ta'lim tamoyillari" (O'zbekiston Respublikasi pedagogika institutlari ilmiy maqolalari).

2.Xusanov, N. "Ta'lim tizimida psixologik moslashuv"

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti (www.xtv.uz).

4.Nabiyeva,G.A.(2021).Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim-tarbiya olishlari.

5.R.Shomaxmudova. ” Maxsus va inklyuziv ta’lim “ uslubiy qo’llanma.Toshkent-2021-yil.

6. UNESCO: "Inclusive Education: The Way of the Future".Booth, T., Ainscow, M. "Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools".Mittler, P. "Working Towards Inclusive Education: Social Contexts".

7.<https://cyberleninka.ru/article/n/imkoniyati-cheklangan-bolalar-maktablarida-ta-lim-jarayonini-tashkil-etish>.

8.Po’latova P.M.<Maxsus pedagogika (oligofreno pedagogika)>”O’qituvchi”-2005y